

**NUTQ KAMCHILIGIGA EGA BO'LGAN BOLALARNI BILAN OLIB
BORILADIGAN KORREKSION – LOGOPEDIK ISH TIZIMI**

Isaeva Mushtariy Alisher qizi

Alfraganus universiteti Defektalogiya yo'nalishi talabasi

Karimova Z.

Alfraganus universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasи o'qituvchisi

Nutqqida nuqsoni mavjud bolani oilada tarbiyalash va rivojlantirishda ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning shakli va mazmuni ularni logoped (defektolog) lar bilan hamkorlik darajasi bilan aniqlandi. Ota-onalar bilan ishlashni tashkil etishda quyidagi tamoillarga tayanamiz:

- Ota-onalarning defektologik yordam olishga tayyorlik darajasini hisobga oluvchi differensiallashgan yordam;
- Ota-onalar tomonidan qayta aloqaning mavjudligi;
- Korreksion o'qishning turli xil davrida olib boriladigan ishning u yoki bu shakli (ko'rinishi)ning ustuvorligi.

Hamkorlikini tashkil etish rejasini amalga oshirishda eng katta qiyinchilik qiziqishi kam bo'lган ota-onalarda paydo bo'ladi. Bunday oilalar bilan shug'ullanganda eng samarali ish shakliy ta'sir etishning individual ko'rinishi bo'lib hisoblanadi, jumladan individual tarzda maslahat (konsultatsiya) berishdir. Individual maslahat berish bir necha bosqichda olib borildi. Har bir bosqichda o'ziga xos va mos masalalar amalga oshirilib, o'ziga xos usullardan foydalanildi.

Birinchi bosqich vazifasi-hamkorlikni rad etgan va unga salbiy qarashda bo'lган ota-onalar bilan ochiq va ishonchli munosabat o'rnatish. Shu maqsadda individual maslahatning maqbul shakllaridan biri bo'lган suhbatdan foydalanildi. Suhbat mazmuni shu bosqich vazifasi asosida olib borildi. Boshlang'ich qisqa suhbatda ota-onalarning pedagogik qobiliyati pastligi va ularni noto'g'ri xatta-harakatlarini tanqid qilishdan voz kechiladi. Birinchi uchrashuvda ota-onalar xatoliklarini sezmaganday bo'lishga va ular ishonchini oqlashga harakat qilinadi.

Agar ota-onalarning o'zlarini davolanishlari kerak bo'lsa ular bilan o'zaro va to'liq ishonch hosil qilish jarayoni qanchalik uzoq muddatli va qiyin ekanligi nazarda tutiladi va vaziyatga karab yondashiladi.

Ota-onalar bilan olib boriladigan individual ishning ikkinchi bosqichi maslahat-tavsiyanoma ko‘rinishida olib boriladi nutq nuqsonini og‘irligiga qarab rejalahtiriladi.

Ota-onalarga mavjud qiyinchiliklarni oldini olish va uni yo‘qotish nutq kamchiliginи va bolaning psixik xususiyatlarini, ehtiyojiga uning yoshi va maxsus qiziqishlari hisobga olgan xolda o‘z vaqtida yaxshilab tushuntirish juda foydalidir. Aks xolda qabul etilgan pedagogik usullarni joriy etishda o‘ziga xos qiyinchiliklar kelib chiqishi mumkin.

Oilada bola rivojlanish jarayonida turli omillar ta’siriga uchraydi. Xususan B.C. Agapov (1994), mazkur omillarni tasniflagan holda uchta turli darajani ajratadi.

Birinchi, individ darajasi, insonning individual-psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq (umumiy konstitusiya, psixik jarayonlar, xususiyatlar va holatlar, biokimyoviy, biofizik, biomexanik, bioenergetik aloqalar tizimi va tashqi ko‘rinish).

Ikkinchi daraja shaxs darajasi deb nomlanadi. U shaxs xususiyatlari, faollik xarakteri, psixologik himoyalari spetsifikasi, insonning turmush tarzi va hayotiy yo‘li xususiyatlari bilan bog‘liq.

Uchinchi darajaga shaxslararo tartibdagi omillar kiradi, u guruh normalariga moslashganlik, madaniyat xususiyatlari, an'analar va odatlar, oila, maktab, bolalar harakati,

Yuqorida ko‘rsatilgan shartlarning har biri bolaning shaxsi rivojlanishida katta rol o‘ynaydi. O‘z-o‘zini anglashga ta’sir qiluvchi omillarni tizim ichida ko‘rib chiqish zarur, biroq, uchinchi darajaning har bitta sharti o‘z ta’sirini oilaviy muhit orqali o‘zgargan holda tarqatadi. Shuning uchun, agar mazkur omillar bolani rivojlanish jarayonidagi ahamiyati nuqtai nazaridan tartibga solinsa, oilaviy sharoitlar omili yetakchilardan biriga aylanadi. Haqiqatdan ham, bola shaxsining rivojlanish jarayonida oilaviy vaziyatlar xususiyatlari yuqori ahamiyatga ega ekanligi, uning shakllanishidagi rolini ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar ko‘rsatib o‘tishgan.

Ota-onsa munosabatining bolada o‘z-o‘zini anglashi shakllanishiga ta’sirini umumiy qilib A.I. Zaxarov so‘zları bilan aytish mumkin (1995, - s. 15): «Ota-onsa muhabbatini singari insonning qadr-qimmat va o‘ziga hurmati yuzaga kelishi hamda mustahkamlanishiga ko‘mak beradigan narsa yo‘q... Mehrdan mahrum bo‘lgan inson o‘zidan qoniqmaydi, o‘zini nomunosib, kamsitilgandek his qiladi». Oilaviy vaziyat xususiyati va bola shaxsining rivojlanish xususiyatlari nisbati olimlar tomonidan ancha paytdan buyon

o'rganib kelinadi. Ota-onada boshqa yaqin kishilar bilan ham ongli, ham ongsiz ravishda ta'sir ko'rsatadi. Bunday ta'sir obyektlari bolaning iroda xususiyatlari, uning o'z salohiyatini namoyon eta olish va maqsadga intiluvchanlik qobiliyati, intizomiligi, ma'naviy fazilatlari, qiziqishlari (ayniqsa o'qishga), qobiliyatlar (aqli, xotirasi)dan iborat bo'ladi. Bola ota-onada munosabatining quyidagi jihatlarini o'zlashtiradi, ularning bolada o'z-o'zini anglashi asosiga aylanadi: - qadriyatlar, baholash va o'z-o'zini baholash parametrlari, bola o'zini-o'zi baholaydigan normalar, jumladan harakatlarni bajarish standartlari va ahloqiy normalar;

- muayyan qobiliyatlar, xususiyatlar, fazilatlar egasi sifatidagi o'z obrazi;- bolaga munosabat va bolaning ota-onada tomonidan ham emotsiyal, ham intellektual aniq baholanishi, bu baho keyinchalik bolaning o'zi haqidagi fikrini belgilab beradi; - boshqa kishining, eng avvalo ota-onaning o'zi haqidagi fikri, u keyin o'zlashtirilishi mumkin;

- bolaning fe'l-atvorini ota-onada yoki boshqa kattalar tomonidan boshqarish usuli, u keyinchalik o'z-o'zini boshqarish usullariga aylanadi. Bolada o'z-o'zini anglash shakllanishi xususiyatlarini u tarbiya olayotgan oilaviy vaziyat xususiyatini hisobga olmasdan ko'rib chiqib bo'lmaydi.

Nevrotik onalar uchun quyidagilar harakterli: bolani tashqi muhit muammolaridan himoya qilish (xatto bolalarning o'zi bemalol uddasidan chiqa oladigan muammolardan ham), doimiy havotirli kayfiyat, bolaga o'tishi mumkin bo'lgan xavf-xatarni his etish va h.k.lar.

Avtoritar onalar uchun quyidagilar xarakterli: faol hayotiy xolat, o'zining shaxsiy xis-tuyg'ulari bilan yashashga intilish, o'zi va bolasi uchun sodir bo'luvchi sharoitdan tez chiqib ketishga o'zi va bolasi uchun butun vujudi bilan harakat qilish xoxishi, o'zini jaholatdan tutib qolaolmaslik, o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyatining yo'qligi, janjallarga moyillik, olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning meyori yo'qligi, ko'pincha tanbeh berishning qo'pol ko'rinishlaridan foydalanish (baqirish, urish).

Psixosomatik onalarda birinchi va ikkinchi guruhdagi xususiyatlar taalluqlidir. Bu guruhga oid onalarda kayfiyatning juda tez o'zgarib turishi (o'ta xushchaqchaqlik bilan o'ta tushkunlikka tushish) namoyon bo'ladi. Bolani tarbiyalashdagi qiyinchiliklar o'z navbatida shaxsiyatparastlikni cho'qqiga ko'taradi.

Demak, tadqiqot natijalari shu narsadan dalolat berayaptiki, onalar o'z nogiron bolalariga turli tarzda muomalada bo'lar ekanlar: bir tomonidan ular bolalariga o'ta sabrlilik, yumshoqlik, katta mehr namoyish etsalar, ikkinchi

tomondan nafratlanish, asablanish, qat’iylik, e’tiborsizlikni namoyish etadilar. Nogiron bolalar onalari o’z bolalarini kasal, eziluvchi, har doim xafa bo’lib yuruvchi, o’zlaridan boshqa xech kimga kerak emas deb tushunadilar.

Onalar bilan olib borilgan suhbatlarning taxlili shu narsadan dalolat berayaptiki, ulardagи ustivor xis-tuyg’ular achinish, qiynalish, ezilish, depressiya, aybdorlik va uyalishdir. Ota-onalarda nogiron-bola tug’ilgani uchun o’zlarini aybdor deb hisoblash, uyalish xis-tuyg’usi mavjud bo’lib bu xis-tuyg’u va bolalarini qarindosh-urug’, qo’ni-qo’shnilariga bildirmaslikka, ko’rsatmaslikka harakat qilish belgilari bo’ladi. Onalar tomonidan izhor etiluvchi ayrim fikr mulohazalarni keltirib o’tamiz: «Xomiladorlik davrida dori ichganman», «Xomiladorlik davrida kuchli taksikoz (bezovtalik) bo’lgan, men davolangan emasman», «Har doim spirtli ichimlik iste’mol qilib yuradigan erimdan o’z vaqtida ajralishim kerak edi». O’tkazilgan amaliy tadqiqotlar shu narsaga ishonch bildirayaptiki, nogiron bolalar ota-onalar, uchun pedagogik yordam usullarini ishlab chiqish kerak. Ushbu usullar o’z navbatida ota-onalarning ehtirosini mo’tadillashtirish, kasal bolani to’g’ri tushunishlarini, o’z-o’ziga tasalli berish, bolaga ijobjiy tarzda yondoshish imkonini beradi.

Xulosa qilib shuni takrorlash mumkinki, davlatning nogironlarga shu qatorda og’ir nutq nuqsoniga ega bo’lgan bolalarga nisbatan insonparvarligi, g’amxo’rligi kelajakda ularni aynan mustaqil hayot moslashish uchun barcha imkoniyatlar yaratilingan. Buni ayniqsa mutaxassislar oilalar bilan birgalikda to’la tasavvur qilishlari va shu sohada faoliyat ko’rsatuvchi amaldorlar, davlat muassasalarida, umuman jamiyatda targ’ibot ishlarini amalga oshirib, bu sohadagi meyoriy, huquqiy hujjatlarni ota-onalarga tanishtirish uchun ular bilan maxsus ishlar oborish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Hamidova, M.Yu.Ayupova Maktabgacha tarbiya maxsus metodikasi O’zbekiston faylasuflari millny jamiyati - :T 2009
2. Mo’mnova L.R., Shomaxmudova R. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish. Toshkent-Turon-iqbol-2007
3. Фомичева М.Ф. Воспитание у детей правильного произношения Москва, 1999г.
4. Кузнецова Г.В. Особенности понимание речи окружающих взрослых умственно отсталыми детьми 4-5 лет // Дефектология, 1998, №2.-С. 67-72.